

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

7

2023




- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti



7491

ISSN: 2992-8982

- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Qo'ng'irotboy Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rincbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Elektron nashr. 406 sahifa, 30-iyul, 2023-yil.

Muharrir:

Qurbanov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Rae Kvon Chung, Janubiy Korea, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Abdurahmonov Qalandar Xodjayevich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyatni rahbari

Toshkulov Abduqodir Hamidovich, i.f.d., prof., O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlar, fan, ta'lif, sog'liqni saqlash, madaniyat va sport masalalari bo'yicha maslahatchisi o'rincbosari

Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vaziri o'rincbosari

Sharipov Qo'ng'irotboy Avazimbetovich, t.f.d., prof., TDIU rektori

Oblamuradov Narzulla Naimovich, i.f.n., dots., O'zR Tabiat resurslari vaziri o'rincbosari

Djumaniyazov Maqsud Allanazarovich, Qoraqalpog'iston Resp. Tabiat resurslari qo'mitasi raisi

Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlis qonunchilik palatasi deputati

Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rincbosari

Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokuraturasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'limi boshlig'i

Eshov Mansur Po'latovich, i.f.d., prof., TDIU Akademik faoliyat bo'yicha prorektori

Xudoqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU YomMMIB birinchi prorektori

Abdurahmanova Gulnora Qalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlari va innovatsiyalar bo'yicha prorektori

Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor

Yuldashev Maqsud Abdullayevich, p.f.d., prof., TDIU Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektori

Karimov Norboy G'aniyevich, i.f.d., prof., TDIU huzuridagi PKQTMO tarmoq markazi direktori

Hakimov Nazar Hakimovich, f.f.d. TDIU profesor

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TMI professori

Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU Marketing kafedrasи professori

Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori

Aliyev Bekdavlat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori

Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., prof., Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti

Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rincbosari

Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d., Toshkent arxitektura-qurilish universiteti katta o'qituvchisi

Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktaranti

Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi

Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'onan davlat universiteti dotsenti

Ekspertlar kengashi:

Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti

Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti

Imomqulov To'iqin Burxonovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,

O'zR Tabiat resurslari vazirligi,

O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining

2023-yil 1-apreldagi 336/3-soni qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Green Economy Transition Strategy for Uzbekistan	6
Raekwon Chung , Chairman, Supervisory Committee for New Climate Innovation Center at TSUE	
Jahon Savdo Tashkilotiga a'zolikning dolzarb masalalari	8
Nodira Shotursunova , Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)	
"Yashil iqtisodiyot"dan "yashil taraqqiyot" sari	12
Shoyqulov Baxtiyor Bakirovich , t.f.n., dotsent	
Tadbirkorlik faoliyatida yuzaga keladigan risklarni sug'urtalashning mohiyati va xususiyatlari.....	16
Egamov Zoxid Baxtiyarovich , bosh mutaxassisi	
Unleashing the Potential of Human Capital for Green Development:	
Bridging the Gap between Environmental Sustainability and Skill Development	26
Muratova Muzayana , Teacher	
Анализ состояния применения механизма инновационного управления инфраструктурами нефтегазовых предприятий в условиях глобальной потепление земли.....	34
Кучаров Аброр Сабиржанович , профессор; Динара Нурмамад кизи Ишманова , доцент; Тю Константин Геннадьевич , соисследователь	
Enhancing Methodology for Developing Professional and Communicative Skills	
of Future Economists in the Context of Teaching English and Green Economy	39
Nargiza Samandarova Muxammadovna , Teacher	
The Role of Higher Education in Shaping a Sustainable Green Economy.....	47
Ikromov Sayidolim , Teacher	
O'zbekistonda yashil turizmni rivojlantirish istiqbollari.....	54
Rasulova Nigora Yusupovna , kafedra assistenti	
Qishloq hududlarini rivojlantirishda agroturizmnинг аhamiyati	58
Jontemirova Iroda Ikrom qizi , talaba	
Iqtisodiy rivojlanish yo'lida "Yashil iqtisodiyot"ning o'rni	61
Hamroyeva Sevinchbonu Hamroyevna , talaba	
O'zbekistonda yashil iqtisodiyot va yashil byudjetlashtirish tizimiga o'tishning ahamiyati.....	64
Raxmanov M. A. , tayanch doktorant	
Sustainable Globalization: Nurturing a Green Economy in Higher Education.....	68
Tukhtaeva Shakhnoza , Teacher	
Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishni investitsiyalar yordamida oshirish xususiyatlari.....	75
Bauyeddinov Majit Janizaqovich , kafedra dotsenti; Djumaniyazov Ubbiniyaz Ismayl uli , tayanch doktoranti	
Qishloq xo'jaligi nisbiy samaradorligini baholash	79
Berkinov Bozorboy , iqtisodiyot fanlari doktori, professor; Qulmatova Sayyora Safarovna , PhD; Ruxsatova Rushana O'ktamovna , erkin tadqiqotchisi	
O'zbekiston Respublikasidagi yirik tijorat banklari kreditlash amaliyotining ekonometrik tahlil va natijalari	86
Kaxxarov Ulug'bek Xalmatovich , mustaqil izlanuvchi	
O'zbekistonda eksportni kreditlash mexanizmlarini yanada kengaytirish yo'nalishlari.....	97
G'aniyev Shaxriddin Abduvoxidovich , i. f. d., professor; Qarshiyev Daniyar Eshpulatovich , i. f. f. d. (PhD)	
Tijorat banklarida iqtisodiy-matematik modellashtirish samaradorligini yanada oshirish usullari.....	102
Raxmanov Mexridin Sindarovich , kafedra dotsent v. b.	
Banklarda moliyaviy resurslarni boshqarishning ayrim rivojlangan mamlakatlar tajribasi.....	106
Ortiqov Uyg'un Davlatovich , kafedra dotsenti, i.f.n.	
Зарубежный опыт в области цифровизации цепочки поставок продуктов питания	115
Марданова Барно Асатуллоевна , докторант	
Environmental culture and building the ecosystem performance: An empirical analysis from Uzbekistan	119
Aziz Zikriyoev , PhD	
Kichik biznes subyektlarining eksport salohiyatini oshirishda innovatsiya va raqamlashtirish bo'yicha xorij tajribasi.....	129
Kambarova Sh. M. i.f.b.f.d. PhD	



Xalqaro dividend siyosati tajribalarida “S&P 500 dividend aristocrats” amaliyoti va uni milliy fond bozorida qo'llash imkoniyatlari.....	134
Sherkuziyeva Nasiba Abrorovna , dotsent	
Yirik sanoat korxonalarida innovatsion menejmentni joriy etish asosida mehnat samaradorligini oshirish yo'llari	139
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich , i. f. b. f. d. (PhD), dotsent; Saotaliyeva Nozima Isomiddinovna , talaba	
Byudjyetdan tashqari mablag'lari samaradorligini oshirishda davlat xaridlarining roli	147
Norov Akbar Ruzimamatovich	
O'zbekistonda sanoat kooperatsiyasi asosida tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish jarayonlari tahlili	151
Egamberiyev Shuxrat Satimbayevich , i.f.f.d.(PhD)	
Aholining tadbirkorlik faoliyatini oshirishda oilaviy tadbirkorlikning roli	158
Xudayarova Maftuna Shavkatovna , tayanch doktorant	
Elektron tijoratni samarali tashkil etishda raqamli platformalarning yaratilish texnologiyasi	164
Karimova Shirin Zoxid qizi , tayanch doktorant	
Tadbirkorlik subyektlarini moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish orqali aholi bandligini ta'minlash	168
Shakirova Nigora Axralovna , kafedra dotsenti v.b.	
Aglomeratsiya iqtisodiyoti – hududiy rivojlanini harakatlantiruvchi omili sifatida	172
Raximbayev Akmal Azatboyevich , mustaqil tadqiqotchi	
Overview of Environmental Management in Uzbekistan: A Comparative Analysis of Protected Areas and Waste Management.....	177
Mamadjonova Sarvinoz Sharifjonovna , PhD	
Obligatsiyalar bozorining paydo bo'lishi va uning iqtisodiyotga kapital jalb qilishdagi ahamiyati	182
Xushvaqov Islombok Muxammadi o'g'li , tayanch doktorant	
Iqtisodiy subyektlarga soliq yukini hisoblashning ahamiyati va zarurati.....	186
Abduturopov Jasurbek Nozimjonovich , mustaqil izlanuvchi	
Muammoli kreditlar va ularni bartaraf etish yo'llari.....	195
Tojiyev Sardor Dilmurod o'g'li	
Yangi O'zbekiston taraqqiyotida sug'urta munosabatlarini amalga oshirishning ahamiyati va zarurligi.....	199
Abduturapova Dildora Farxodjon qizi , tayanch doktorant	
Assotsiativ qoidalar va bozor savatlarining tahlili	205
Sh. B. Rajabov; Sadinov Aziz Ziyadullayevich , 3 st year doctoral student	
Mamlakatda davlat soliq xizmati organlari soliq ma'muriyatichiligi faoliyati tahlili.....	210
Tashmuxamedova Yayra , tadqiqotchi	
Exploring the Integration of Management and Marketing Strategies in Higher Education Institutions: Addressing Crucial Gaps for Enhanced Organizational Performance.....	213
Rakhimova Gulnoza , Teacher	
Особенности научной биографии художника Урала Тансыкбаева (на материале эпистолярного наследия).....	218
Искендер Аккуралай Абдиуалиевна , докторант	
Raqamli iqtisodiyot: milliy iqtisodiyot drayveri.....	222
Kutbitdinova Moixigul Inoyatovna , kafedra dotsenti; Berdiyeva Janonaxon Jahongir qizi	
Роль цифровизации туристической отрасли в повышении её экспортного потенциала страны	228
Суюнова Фотима Баходир кизи , базовый докторант	
Targetirovaniye inflatsii v Uzbekistane: predposylki primeneniya i pervyye itogi	233
Рашидов Рахимжон Исандарович , в.и.о доцента; Якубова Шамшинур Шухратовна , к.э.н., доцент, докторант (DSc)	
O'zbekistonda tadbirkorlik faoliyati va uning barqarorligini ta'minlashda sug'urtaning o'rni	240
Nomozova Qumri Isoyevna , iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent	
Tijorat banklarining investitsion jozibadorligini takomillashtirishning xorijiy davlatlar tajribalari.....	248
Nazarov Qilich Xolmuradovich , kafedra assistenti	
Bank moliyaviy xavfsizligini ta'minlashda huquqiy mexanizmlarning o'rni	255
Akbarov Behzodhon Ulug'bek o'g'li , mustaqil tadqiqotchi	
Tijorat banklarida muammoli aktivlarni boshqarishning dolzarb masalalari.....	262
Do'sanov Doniyor , magistr	



Tijorat banklarida raqamli texnologiyalarni joriy qilish xususidagi ilmiy-nazariy qarashlar.....	269
N. N. Ro'ziyev	
Exploring the Potential of Islamic Finance in Uzbekistan.....	277
Sattorova Nasiba G'anijon qizi, Teacher	
O'zbekiston Respublikasida tijorat banklari faoliyatini tartibga solish tizimining zamonaviy holati.....	284
Murodova Dilnoza Choriyevna, PhD	
Kredit mexanizmini metodologik asoslarini takomillashtirish	288
Gadoyev So'hrob Jumakulovich, mustaqil tadqiqotchi	
Korxonalarda raqamli marketing vositalaridan foydalanish xususiyatlari.....	295
M. A. Saparova, talaba	
Prioryetetnye napravleniya modernizatsii sistemy podgotovki turistskikh kadrov.....	299
Ochilova Xilola Farmonovna, k.э.н., dozent	
Improving the use of competitive strategies in the management of sewing and knitting enterprises during green development	304
Vafoyeva Dilafruz, Teacher	
O'zbekistonda savdo xizmatlari sohasining rivojlanish tendensiyasi va istiqbollari	311
Xojiyev Elshod Yoqub o'g'li, katta o'qituvchisi, PhD	
O'zbekiston Respublikasida aholini ijtimoiy himoya qilishning zamonaviy statistik usullaridagi tahlili	316
Kutbitdinova Muhayyoxon Inoyatovna, tayanch doktorant	
O'zbekiston to'qimachilik sanoatida CRM strategyalaridan foydalanish yo'llari	323
Xalilova Nafisa Komilovna, magistrant	
Ko'zi ojiz shaxslarni ish bilan ta'minlashni qonunchilik vositasida tartibga solishdagi xorijiy tajriba	327
Usmonov Ziyodulla Ulmas o'g'li, tayanch doktarant	
Optimizatsii operatsionnoi strategii i povyshenie ekonomicheskogo potentsiala chlopkovo-tekstil'nykh klastерov	334
Dzhurabaev Otabek Dzhurabaevich, dozent kafedry	
Neobходimost' upravleniya aktivami i passivami sovremennymi bankami Uzbekistana	341
Fattahova Munisa Abduxamitovna	
Transport logistika xizmatini eksportni takomillashtirishga ta'siri	349
Jumabayeva Akmole Sheraliyevich, magistrant	
Cifrovaya valyuta:可能ные последствия вывода из обращения наличных денег	354
Baxromov Mirzaakhmad Rustam ugли, student; Abdikarimova Dina Rустамхановна, научный руководитель, д. э. н. (DSc)	
Systematic mapping study of higher education in green development context.....	361
Asqarova Feruza Abdullaevna, Senior Teacher	
O'zbekistonda rekreatsiya turizmini rivojlantirish imkoniyatlari.....	368
Vayskulov Ramazon Alisher o'g'li, kafedra o'qituvchisi; Shaymanova Nigora Yusupovna, tayanch doktoranti	
Oсобенности подготовки юных футболистов на этапах начальной подготовки, спортивно – оздоровительном и групп начальной специализации.....	373
D. K. Ismagilov, kandidat pedagogicheskikh nauk, dozent	
Optimizing Financial Resources Management in Treasury Systems for Sustainable Green Development.....	377
Shodmonkulova Shahlo, PhD student	
Iqtisodiy xavfsizlikning institutsional asoslarini takomillashtirishning xorij davlatlar tajribasi	384
Mamatov Sardor Axmatjonovich, mustaqil tadqiqotchi	
Bank tizimida resurs bazasini mustahkamlash yo'llari.....	390
Voxidov Oybek Rozikovich, mustaqil tadqiqotchisi	
Integrating Career-Oriented Communication Competences in English Language Teaching for Future Specialists in Higher Education Institutions: A Catalyst for Green Economy	398
Rajapov Sulaymon Nuraddin Ugli, Teacher	
Tijorat banklari faoliyatida raqamli texnologiyalaridan foydalanish samaradorligini baholash istiqbollari	406
Fayziyeva Muyassarzoda Xancharovna, mustaqil izlanuvchi (PhD)	



QISHLOQ XO'JALIGI NISBIY SAMARADORLIGINI BAHOLASH

Berkinov Bozorboy
TDIU, iqtisodiyot fanlari doktoi, professor



Qulmatova Sayyora Safarovna
TDIU, PhD

Ruxsatova Rushana O'ktamovna
Termiz davlat universiteti erkin tadqiqotchisi

Annotatsiya: Maqolada respublika qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi rivojlanishi va samaradorligi tahlil qilingan va qishloq xo'jalik nisbiy samaradorligi Rikardian modeli asosida misollarda ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi, qishloq xo'jalik samaradorligi, nisbiy samaradorlik, Rikardo modeli.

Аннотация: В статье анализируется развитие и эффективность сельскохозяйственного производства республики и рассматриваются примеры относительной эффективности сельского хозяйства на основе рикардианской модели.

Ключевые слова: сельскохозяйственное производство, эффективность сельского хозяйства, относительная эффективность, модель Рикардо.

Abstract: The article analyzes the development and efficiency of the republic's agricultural production and examines examples of the relative efficiency of agriculture based on the Ricardian model.

Key words: Agricultural production, agricultural efficiency, relative efficiency, Ricardo's model.

KIRISH

O'zbekiston qishloq xo'jaligi iqtisodiyotning yetakchi va hayotiy tarmoqlaridan biridir, yalpi ichki mahsulot-dagi ulushi taxminan 28,5 foizini tashkil qiladi. Qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat sanoatida mamlakatimiz iqtisodiyotida band bo'lganlarning umumiy sonining 32 foizi(qariyb 4,2 million kishi)ni tashkil qiladi. Respublikamizning paxta tozalash, to'qimachilik, yengil, oziq-ovqat, kimyo sanoati kabi ko'plab tarmoqlarining rivojlanish istiqbollar, iqtisodiy va moliyaviy ahvoli va bu butun sanoat salohiyatining yarmiga yaqini bevosita qishloq xo'jaligiga bog'liq [2]. Shu sababli, qishloq xo'jaligining asosiy vazifasi aholini oziq-ovqat, sanoatni esa xom ashyo bilan ta'minlashdan iborat. Qishloq xo'jaligi xom ashysidan ishlab chiqarilgan oziq-ovqat va sanoat tovarlari iste'mol tovarlarining $\frac{3}{4}$ qismidan ko'prog'ini tashkil qiladi, shunindek, mehnatni ixtisoslashtirish, ilmiy asosda tashkil etish, moddiy va ma'nnaviy manfaatdorlikni oshirish, chet el texnologiyalari va tajribalarini amaliyatda qo'llash, agrosohani industrial sanoat sohasiga aylantirish, mehnat sharoitlarini yaxshilash va haq to'lashni takomillashtirish orqali mehnat unumdarligini oshirish mumkin [3]. Tadqiqotchilar ijtimoiy-iqtisodiy o'sishga ham sohaning rivojlanishi ta'siri muhimligini ta'kidlaydilar, masalan, FAO tadqiqotchilari qishloq xo'jaligidagi iqtisodiy o'sishing bir foizi umumiyo qashshoqlik darajasining 1,5 foizga qisqarishiga teng ekanligini ko'rsatishdi [4].

Hozirda sohani barqaror rivojlantirish va modernizatsiya qilish mamlakatimizda ham aholi farovonligini oshirishga qaratilgan asosiy ustuvor yo'nalishi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 23.10.2019-yildagi "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020 – 2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5853-sон Farmonida qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish, yer va suv munosabatlarini takomillashtirish, qulay agrobiznes muhitini va yuqori qo'shilgan qiymat zanjirini yaratish, kooperatsiya munosabatlarini rivojlanishni qo'llab-quvvatlash, sohaga bozor mexanizmlarini, axborot- kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, shuningdek, ilm-fan yutuqlaridan samarali foydalanish hamda kadrlar salohiyatini oshirish masalalari ko'rsatib o'tildi [1].



ADABIYOTLAR TAHLILI

Qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi iqtisodiy samaradorligini turli usullari bilan talqin qilinadi. Tadqiqotchilar tomonidan qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi iqtisodiy samaradorligining mohiyati va tabiatni, xo'jalikning xususiyatlari, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish bo'yicha ishlar ko'rib chiqilgan. Zamonaliv iqtisodiy nazariyaning asoschilaridan biri A. Smit sanoat ishlab chiqarish samaradorligini mehnat taqsimoti zarurati bilan bog'lagan^[5]. V. A. Dobrinin, O. S. Libkind, K. L. Obolenskiy va boshqa olimlar qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining samaradorligini har bir gektar yerdan yetishtirilgan mahsulot birligiga moddiylashtirilgan mehnat sarflagan holda maksimal mahsulot miqdorini olish bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlarni aks ettiruvchi siyosiy iqtisodiy kategoriya sifatida qaraganlar [6–8].

Y. Novikov fikricha, qishloq xo'jaligi korxonalari samaradorligini aholi jon boshiga har bir gektar yerdan kerakli assortimentdagagi oziq-ovqat va xom ashyo ishlab chiqarishni mutazam ravishda oshirish bilan ko'rsatish mumkin^[9]. Qishloq xo'jaligi mehnat unumdarligi va yerning unumdarligini va normal atrof-muhit sharoitlarini saqlash uchun barcha resurslardan oqilona foydalanish bilan mahsulot birligiga xarajatlarni kamaytirish asosiy o'rinda turadi. T. Saxlanova qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining samaradorligi uning ishlab chiqarish omillari bo'lgan barcha resurslardan foydalanish samaradorligiga bog'liqligini ko'rsatdi^[10]. G. Ivanov qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining samaradorligi agrosanoatda qishloq xo'jaligi korxonalarining yangi muhitini shakllantirish bilan kuchaytirishdir deb ta'kidladi^[11]. Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishi iqtisodiy bahoga ega yer, kapital, mehnat va tadbirkorlik qobiliyati resurslardan foydalanish samaradorligiga bog'liq. Qishloq xo'jalik mahsulotlari bozorida qishloq xo'jaligi yer asosiy ishlab chiqarish vositasi sifatida, tuproq, iqlim va ob-havo sharoitlariga bog'liqligi (qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining mavsumiyligi), qishloq xo'jaligida ish davri va ishlab chiqarish davri o'rtasida tafovut mavjudligi, qishloq xo'jaligi mahsulotlari keyingi ishlab chiqarish jarayonida qo'llanilanishi, qishloq xo'jaligi mahsulotlariga bo'lgan talabning narxlarning egiluvchanligi, mahsulot ishlab chiqaruvchilarning ko'p bo'lishi kabi xususiyatlari yuqori raqobat uchun sharoit yaratadi. Qishloq xo'jaligi xalq xo'jaligining boshqa tarmoqlariga nisbatan qayd etilgan xususiyatlari tarmoqning moddiy-texnika bazasini shakllantirish, ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish, ulardan foydalanishning iqtisodiy samaradorligini aniqlashda har tomonlama tahlil qilish va hisobga olishni talab qiladi.

METODLAR VA USLUBLAR

Texnologik samaradorlik deganda ishlab chiqarishni kengaytirish jarayonida resurslardan foydalanish da-rajsi tushuniladi.

Iqtisodiy samaradorlik ma'lum ishlab chiqarish effekti mavjudligida ifodalangan ishlab chiqarish munosa-batlarni amalga oshirish darajasini bildiradi.

Ijtimoiy samaradorlik aholi turmush darajasini oshirishga qaratilgan ma'lum darajadagi ijtimoiy rivojlanish va ekologik samaradorlik ishlab chiqarish birligining optimal xarajatlarida olingen oziq-ovqat bilan odamlarning ijtimoiy ehtiyojlarini maksimal darajada ta'minlash, tuproq unumdarligini va atrof-muhitni qayta ishlab chiqarish uchun sharoitlarni to'liq saqlashni bildiradi. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi samaradorligi energiya resurslaridan oqilona foydalanish shakli sifatida, energiya narxlarining doimiy o'sishi bilan asoslanadi^[12]. Qishloq xo'jaligida samaradorlikni oshirish yo'llarini belgilash ishlab chiqarish hajmining o'sishini belgilovchi intensivlashtirishning asosiy yo'nalişlarini aniqlashga qaratilgan^[13]. Umuman olganda, qishloq xo'jalik ishlab chiqarishining samaradorlik darajasi turli xil omillarga tabiiy-iqlim sharoitlari, xodimlarning malaka darajasi, ishlab chiqarilgan mahsulotlarga bo'lgan talab va sohani yuqori malakali kadrlar bilan ta'minlashga bog'liq. Shuningdek, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida mahsulotlarini bozorda sotish samaradorligi holatida ham ko'rib chiqiladi.

D. Rikardo samaradorlikni iqtisodiy kategoriya sifatida o'rganishni taklif qilib, samaradorlikni natijalarining ma'lum xarajatlarga nisbati sifatida ko'rib chiqdi. Uning nazariyasiga ko'ra, biron bir mamlakat yoki xo'jalik yu-rituvchi subyekt agar biror tovarni yoki xizmatlarni boshqa mamlakatlarga qaraganda nisbatan past imkoniyat narxida ishlab chiqarishi hamda yetkazib berishi mumkin bo'lsa, ushbu tovarlarni ishlab chiqarishda nisbiy ustunlikka ega deb aytildi. Bunda ishlab chiqarishni diversifikasiya qilishning bir nechta variantlari orasida tanlov qilishda tahlil qilish uchun hal qiluvchi omil sifatida imkoniyat narxi olinadi. Bu mamlakatlar samaradorligini nisbiy kattalik bo'yicha baholash uchun ishlatiladi, chunki resurslar cheklangan va shuning uchun ular o'zlarini nisbiy ustunlikka ega bo'lgan tovar va xizmatlarni ishlab chiqarishga kirishishlari kerak^[14]. Bu nazariyani qishloq xo'aliq ishlab chiqarishiga tadbiq qilib, qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi nisbiy samaradorligini tahlil qilib ko'raylik. Qishloq xo'jaligi nisbiy samaradorligi- bu alohida xo'jalik yurituvchi subyektning bitta mahsulot birligi uchun boshqa mahsulotlarning maksimal birliklarini ishlab chiqarish qobiliyatidir. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining imkoniyat tannarxini minimallashtirish o'sha hududga muhim afzallik beradi. Shuningdek, qishloq xo'jalik ishlab chiqarishida yer qiymatlariga asoslangan Rikardian yondashuvi olinadi. Masalan, iqlim zonalari bo'yicha ekin-maydonlarining gektariga yer qiymatining variantini ko'rsatish uchun Rikardian modeli



ishlab chiqilgan [15–17]. Shunga ko'ra, Rikardian yondashuvi ekologik omillar ta'sirida sof daromad yoki yer qiymatining pasayishi kabi iqtisodiy yo'qotishlarni o'lchash yo'li bilan moslashishni hisobga oladi.

Mamlakat ishlab chiqarishida nisbiy samradoralikni aniqlash ko'rsatkichi (RCA- Revealed comparative advantage)dan foydalaniladi. Agar mamlakatda ishlab chiqarilgan mahsulot eksportining barcha mahsulotlar umumiy eksportiga nisbati butun dunyo bo'yicha bir xil nisbatdan oshsa, bu mahsulot bo'yicha aniqlangan nisbiy ustunlikka ega deb aytildi. RCA Rikardo nazariyasiga ko'ra, o'ziga xos qarorlari mahsuldarlikdagi nisbiy farqlari bilan boshqariladi. Bunday mahsuldarlik farqlarini kamaytirish qiyin bo'lsa-da, RCA ko'rinishdagi farqlarini "oshkor qilish" uchun savdo ma'lumotlari yordamida aniq hisoblanishi mumkin [18].

Qishloq xo'jalik ishlab chiqarishidaga nisbiy samradoralikni aniqlash ko'rsatkichi RCAni tatbiq qilsak, u quyidagicha hisoblanadi:

$$RCA_{Ai} = \frac{\frac{x_{Ai}}{\sum_{j \in P} x_{Aij}}}{\frac{x_{Vi}}{\sum_{j \in P} x_{Vij}}}$$

Bu yerda:

P – barcha yetishtirilgan qishloq xo'jalik mahsulotlari ($i \in P$),

x_{Ai} – A hududda yetishtirilgan qishloq xo'jalik mahsulotlar savdosi,

x_{Vi} – mamlakatimizda barcha yetishtirilgan i mahsulotlar chetga savdosi,


$\sum_{j \in P} x_{Aij}$ – A hududning jami savdosi (etishtirilgan P dagi j mahsulotning barcha turi)

$\sum_{j \in P} x_{Vij}$ – mamlakatimizda yetishtirilgan jami mahsulotlar (etishtirilgan P dagi j mahsulotning barcha turi)

NATIJALAR

Respublikamizda qishloq xo'jaligida bug'doy, paxta, sholi, arpa, kartoshka, yem-xashak ekinlari ko'proq yetishtiriladi, shuningdek, dukkakli va moyli, dorivor ekinlar ekish-maydoni kengaymoqda. Chorvachilikda – qoramol (sut va go'sht) va parranda yetishtiriladi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi 364,5 trln so'mni (o'sish-3,6 foiz) tashkil etib, tarmoqdagi o'sish poliz ekinlari(5,9 foiz), don (4,7 foiz), kartoshka (4,7 foiz), meva va rezavor (4,6 foiz), uzum (3,9 foiz) mahsulotlari hisobiga ta'minlandi (1-jadval).

Qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirish hosildorlik ko'rsatkichlarini olib qarasak, agrotexnologiya jarayonlarini takomillashtirish asosida ekinlar asosiy turlari bo'yicha hosildorlikning oshishi ta'minlandi(1-rasm). 2017–2019-yillarda respublikada yetishtiriladigan oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirish hajmlarini yanada oshirish va nomenklaturasini kengaytirish bo'yicha tizimli chora-tadbirlarning amalga oshirilishi tufayli kartoshka yetishtirish 3143,8 ming tonnadan 3285,6 ming tonnagacha oshdi,




1 -rasm: Qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirish diagrammasi



2021-yilda sabzavot yetishtirish hajmi 10850,2 ming tonnani tashkil qildi (2020-yilga nisbatan o'sish sur'ati 101,04 foizni tashkil yetdi). 2017–2021-yillarda moyli ekinlardan kunjut ishlab chiqarish hajmi 12,8 ming tonnadan 15,7 ming tonnagacha oshdi, masxar yetishtirish 8,9 tonnadan 5,6 ming tonnaga kamaydi.

Meva va sabzavotlarni yetishtirish 1991 yildan 1997 yilgacha kamayganligini, 1998-yildan keyin yetishtirish hajmi ortganligini kuzatish mumkin. Meva-sabzavotchilikni tubdan takomillashtirish va rivojlantirish bo'yicha 2019-yil 14-martdag'i qabul qilingan qaror natijasida meva va rezavorlar 2020-yilda 2018-yilga nisbatan 2753 ming tonnadan 2852,6 ming tonnaga oshdi (2-rasm).



2-rasm: 1991–2021-yillarda meva va sabzavotlar hosildorligi

Pilla yetishtirish 1991 yildan 2002-yilgacha davrda kamaygan, 2003-yildan 2015-yilgacha yetishtirish hajmi ortganligini 2017-yil 2016-yilga nisbatan 13,87528 ming tonna kamayganligini kuzatishimiz mumkin. Shuningdek, 2017-yildan boshlab yana pilla yetishtirish ortib borgan, jumladan, 2021-yilda 2017-yilga nisbatan 11,74987 ming tonnaga oshgan.

Asalchilik sohasida ham hosildorlik ipakchilik bilan bir xil darajada o'zgarganligini va bu sohalarga e'tibor qaratilgan so'ng oshganligini ko'rish mumkin(3-rasm). 2017–2019-yillarda qishloq xo'jaligi chorvachilik ulushi 43,8 foizdan 49,8 foizga oshdi. Chorvachilik tarmog'i salohiyatini yanada oshirish chora-tadbirlarining izchil amalga oshirilayotgani ichki iste'mol bozorini go'sht va sut mahsulotlari bilan to'ldirishga xizmat qildi. Qoramollilar soni 2017-yildagi 12414,7 ming boshdan 2019-yilda 12968,3 ming boshga, qo'y va yechkilar 20680,5 ming boshdan 21986,0 ming boshga, qushlar 71343,4 ming boshdan 93132.3.e. barbarga ko'paydi. Shu munosabat bilan shu davrda tirik vaznda go'sht yetishtirish hajmi 2017-yildagi 2281,1 ming tonnadan 2019-yilda 2465,0 ming tonnaga, sut 10083,2 ming tonnadan 10710,8 ming tonnaga, tuxum 6605,5 mln. gacha 7757,4 mln. O'zbekiston qishloq xo'jaligida klaster ishlab chiqarish usuli keng joriy yetildi, bu qishloq xo'jaligi xom ashyosini qayta ishslash va bozorga tayyor mahsulotlar yetkazib berishni ta'minlaydi¹.



3-rasm: 1991–2021-yillarda meva va sabzavotlar hosildorligi

1 O'zbekiston davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida



Respublika hududlari sharoitlarini hisobga olgan holda ekinlarni yetishtirish nisbiy samaradorligi bo'yicha quydagi larni ko'rib o'taylik. Nisbiy samaradorlik orqali barcha ishtiokchilar o'zaro hamkorlik yoki savdodan foya da olishlari mumkin. Rikardo nazariyasiga ko'ra, mamlakatimiz hududlari o'rtaida iqlim va yer zonalari bo'yicha tafovutlar bor ekan, har bir hudud nisbiy samaradorlikka ega bo'ladi. Ya'ni qishloq xo'jalik ishlab chiqarilishida har bir hududda ishlab chiqarilishi boshqa mahsulot ishlab chiqarishdan ko'ra kamroq xarajatlar bilan yetishtiri luvchi qishloq xo'jalik mahsuloti mavjud bo'ladi.

A va B hududlarda 1 tonna bug'doy va paxta ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan resurslar sarfini ko'raylik.

2-jadval: Qishloq xo'jalik ishlab chiqarishidagi qiyosiy ustunliklar(ishlab chiqarish xarajatlari so'mda)

Hududlar	Bug'doy	Paxta
Hudud – A	10	16
Hudud-B	40	25

Shunday qilib, tahlilga ko'ra ikkala hudud ham bug'doy va paxta ishlab chiqarish uchun faqat o'z resurslarning yarmidan foydalanadi. Shunday qilib, A hudud 20 tonna bug'doy va 12,5 tonna paxta ishlab chiqaradi, B hudud esa 5 tonna bug'doy va 8 tonna paxta ishlab chiqaradi.

3-jadval: Qishloq xo'jalik ishlab chiqarishidagi nisbiy ustunliklar(ishlab chiqarish va iste'mol qilish)

Hududlar	Bug'doy	Paxta
Hudud – A	20	12.5
Hudud –B	5	8
Jami	25	20.5

Bug'doy va paxta yetishtirishda "A hudud" ning mutlaq ustunligini hisobga olgan holda, ammo u bug'doy ishlab chiqarishda qiyosiy ustunlikka ega, chunki u "B hudud" tomonidan ishlab chiqarilgan bug'doyning 4 baravar ko'p ishlab chiqarishi mumkin, ammo ishlab chiqarish haqida gap ketganda paxta yetishtirish A hudud B hududdan atigi 1,56-marta oldinda.

A hudud bug'doy ishlab chiqarishda o'zining nisbiy ustunligidan foydalanishga tayyor bo'lganda va ishlab chiqarishni 20 donadan 30 tonnagacha bug'doyni ko'paytirganda, faqatgina 300 birlik resurslardan foydalana digan va paxta yetishtirishda 100 ta resurslardan foydalanish mumkin. Shu bilan birga, B hudud paxta ishlab chiqarishga ixtisoslashgan va uni ishlab chiqarish uchun barcha resurslardan foydalanadi va 16 tonna paxta ishlab chiqaradi. Endi bug'doyning ham, paxtaning ham umumiy hosili hajmi o'sganligini ko'rish mumkin.

4-jadval: Qishloq xo'jalik ishlab chiqarishidagi qiyosiy ustunliklar(ixtisoslashtirilgan ishlab chiqarish)

Hududlar	Bug'doy	Paxta
Hudud – A	30	6.25
Hudud -B	0	16
Jami	30	22.5

Bu nafaqat mahsulot ishlab chiqarish hajmi oshganligini, haqiqatan ham har ikki hudud ham savdoning afzalliliklaridan foydalanishlari mumkinligini isbotlamoqda. A hududda keyingi iste'mol 6,5 tonna bug'doyni 6,5 tonna B hududda yetishtirilgan paxtaga almashtiradi(5-jadval).

5-jadval: Qishloq xo'jalik ishlab chiqarishidagi qiyosiy ustunliklar (ixtisoslashtirilgan qayta ishlab chiqarish)

Hududlar	Bug'doy	Paxta
Hudud – A	23.5	12.75
Hudud B	6.5	9.5
Jami	30	22.5



Ixtisoslashuv va savdodan keyin iste'molning o'sishini 6-jadvalda ko'rish mumkin.

6-jadval: Qishloq xo'jalik ishlab chiqarishidagi qiyosiy ustunliklar(iste'molning o'sishi)

Hududlar	Bug'doy	Paxta
Hudud – A	3.5	0.5
Hudud B	1.5	1.5

XULOSA VA TAKLIFLAR

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida Rikardian modelida 2 ta holat qaraladi. Birinchisi doimiy miqyosdagi daromadlar ya'ni, tovar ishlab chiqarishda ma'lum miqdordagi resurslardan foydalilanadi va miqyosda o'sish yoki pasayish bo'lmaydi. 2-si har bir hudul ikkita tovardan birini ishlab chiqarishda nisbiy ustunlikka ega, ya'ni ular uni boshqa huduga nisbatan kamroq imkoniyat xarajati bilan ishlab chiqarishi mumkin. Rikardian modelining birlamchi xulosasi shundan iboratki, agar bir hudud ikkala tovar ishlab chiqarishda mutlaq ustunlikka ega bo'lsa ham, savdodan ikkalasi ham foyda ko'radi. Nisbiy ustunlikka ega bo'lgan mahsulotni ishlab chiqarishga ixtisoslashgan holda, har bir hududda umumiyl samaradorlik va ishlab chiqarish hajmini oshadi.

Mamlakatimiz hududlarida ishlab chiqilgan qishloq xo'jalik mahsulotlari savdosining barcha mahsulotlar umumiyl savdosiga nisbati butun mAMDakat bo'yicha birdan oshsa, A hudud ma'lum mahsuloti bo'yicha aniqlangan nisbiy ustunlikka ega deb aytildi. Agar bir hudud ma'lum bir mahsulot bo'yicha aniqlangan qiyosiy ustunlikka ega bo'lsa ($RCA > 1$), u ushbu mahsulotni mamlakat o'ttacha darajasida yoki undan pastroq ishlab chiqaradigan va savdo qiladigan hududga nisbatan raqobatbardosh ishlab chiqaruvchi va eksport qiluvchi hisoblanadi va mahsuloti bo'yicha nisbiy ustunlik aniqlangan hudud ushbu mahsulot bo'yicha eksport kuchiga ega deb hisoblanadi. Mahsulot uchun hududning RCA qiymati qanchalik yuqori bo'lsa, uning bu mahsulotdagi eksport quvvati shunchalik yuqori bo'ladi.

Bundan ko'rinish turibdiki, respublika qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida ham hududlarda resurslar va xaratatlarga ko'ra nisbiy samaradorlikni ko'rib, ekinlar ekish va qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirishni yo'liga qo'yish lozim.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 23.10.2019-yildagi "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020 – 2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5853-son Farmoni
2. Дарья Ильина. Реформирование сельского хозяйства в Узбекистане. Институт прогнозирования и макроэкономических исследований. <https://ifmr.uz/publications/articles-and-abstracts/agriculture>
3. Қишлоқ ҳўжалиги иқтисодиёти ва менежмент. Ўқув қўлланма / Ў.П.Умурзоқов, А.Ж.Тошбоев, Ж.Рашидов, А.А.Тошбоев Масъул муҳаррир: академик Ғуломов С.С. Ўз.Р Олий ва ўрта таълим вазирлиги. –Т.: "ИҚТИСОДМОЛИЯ", 2008й. –264 б.
4. ФАО. Аналитический доклад "Положение дел в области продовольствия и сельского хозяйства: инвестирование в сельское хозяйство ради улучшения будущего" Продовольственная и сельскохозяйственная Организация Объединённых наций Рим, 2012 г.
5. А.Смит. Исследование о природе и причинах богатства народов: монография. Книги 1–3. Диект медиа. 2014, стр. 442.
6. Оболенский К.Л. Экономическая эффективность сельскохозяйственного производства (теория и практика). – М.: Экономика, 1974. – 246 с.
7. Либкинд А.С. Эффективность сельскохозяйственного производства. Экономико-статистические методы анализа. – М.: Статистика, 1976. – 361 с.
8. Экономика сельского хозяйства / В.А. Добрынин, А.В. Беляев, П.П. Дунаев [и др.]; под ред. В.А. Добрынина. – М.: Высшая школа, 1999. – 476 с.
9. Новиков Ю. Н. Методика расчета экономической эффективности // Экономика и управление. 1996. № 1. С. 10–13.
10. Сахланова Т. Т. Методические аспекты оценки и повышения эффективности сельскохозяйственного производства // Управление экономическими системами: Электронный научный журнал. Кисловодск:



- Кисловодский институт экономики и права, 2011. № 33. С. 8–37
11. Водяников В. Т. Методы оценки уровня эффективности использования энергоресурсов в сельском хозяйстве // Вестник ФГОУ ВПО МГАУ. 2012. № 1. С. 85–89.
 12. Иванов Г.И. Экономическая сущность и понятийный аппарат эффективности агропромышленного комплекса // Ученые записки Крымского федерального университета имени В.И. Вернадского.Экономика и управление. – 2018. – Т. 4 (70), № 2. – С. 34–42
 13. Эффективность сельскохозяйственного производства (методические рекомендации) /Под ред. И.С. Санду, В.А. Свободина, В.И. Нечаева, М.В. Косолаповой, В.Ф. Федоренко. – М.: ФГБНУ “Росинформагротех”, 2013. – 228 с.
 14. L., G. (2021). Mathematical methods for Economic analysis. <https://bookdown.org/praxeolab/mathematics-for-economics/chapter1.html>
 15. R. Mendelsohn. The impact of climate change on agriculture in Asia J. Integr. Agri., 13 (4) (2014), pp. 660–665, 10.1016/S2095-3119(13)60701-7
 16. 1658-077X, <https://doi.org/10.1016/j.jssas.2018.02.006>.
 17. Lau, Lawrence & Yotopoulos, Pan. (1971). A Test of Relative Efficiency and Application to Indian Agriculture. American Economic Review. 61. 94–109.
 18. Neralic, Luka. (2001). Relative Efficiency of Agricultural Production in County Districts of Croatia. Mathematical Communications. 111–119.
 19. INSTAD. <https://unctadstat.unctad.org/EN/RcaRadar.html>

PROGRESS

ПРОГРЕСС

TARAQQIYOT

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2023. № 7

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Telefon: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lisingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

«Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot» jurnali 03.11.2022-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027



Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi 26-uy.